

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**BOLA TARBIYASI VA PSIXOLOGIYASIDA OILA, MAKTAB VA
MAHALLANING O'RNI VA TARBIYAVIY IMKONIYATLARI**

M.Shodiyeva

Nurota tuman 50-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Atoqli jadid pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo harakat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan edi o'z asarlarida. Buyuk adibimizning bu nurhikmat so'zlari hamon o'z ta'sirini yo'qotgani yo'q, farzand tarbiyasida qo'l kelmoqda. Bu so'zlar bir asrdan ishibdiki o'zining dolzarb va muhimligiga qolmoqda. Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak. Zero qush inida ko'rganini qiladi. Ota- ona oilda yuksak axmoq namunasini ko'rsatishi lozim. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, axloqiylik insonda axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan qarashlar ko'p yillar davomida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri axmoqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axmoqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhim sifatida ato etilgan ilohiy ne'matdir. Shu ma'naviy ne'mat asosini axloqiy tarbiya yordamida takomillashtirish mumkin.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda, bolani dunyoga kelganidan boshlab to voyaga yetguniga qadar bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarni bilish, tug'ma layoqatlarini aniqlash, shuningdek qulay muhit yaratish, ta'lim tizimida faol ishtirokini ta'minlashda tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar ma'sulligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilaviy tarbiya bolani ta'lim tizimida. Ya'ni maktabgacha tarbiya muassasi faoliyatiga tayyorlaydi, maktab

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hayoti esa bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Aynan maktab davrida bolaning asosiy faoliyati o‘zgaradi.

Bola maktabga qadam qo‘yanida yaxshi va yomon narsalar haqida o‘z tasavvuriga ega bo‘ladi. O‘qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog‘i kerak. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarining ota-onalari bilan aloqa bog‘lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi darkor. Tarbiyaning samaradorligi ko‘pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo‘ya bilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o‘qituvchi bilan ota-onalarning o‘zaro munasabotlari muomalasiga katta e’tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki illatlarni yo‘qotishi lozim bo‘ladi. Maktabda bolaga chuqr bilim, ta’lim tarbiya mafkuraviy g‘oya, o‘zbekona milliy qadriyatlar, halol mehnat, biror bir kasb- hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek ma’sul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish lozim.

Har bir jamiyat a’zosi oila bag‘rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlshtiradi va insoniy fazilatlarni namayon etadi. Yoshlarni hayotga, ongli mehnat faoliyatga tayyorlashda oila va pedagogik faoliyatning tarbiyaviy jarayonini to‘g‘ri tashkil etish muhim masaladir. Farzand tarbiyasi avvalambor oiladan boshlanadi. “Oila muqaddasdir”-deydi dono xalqimiz. Azal-azaldan har bir ota-onasi o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish ota-onasining eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak xato qilmaymiz. Biz sog‘lom avlod deganda, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog‘lom bolani o‘zimizga tasavvur etamiz. Sog‘lom bola-avvalo sog‘lom va ahil oilaning mevasidir. Biz oilani hayot davomiyligini ta’minlaydigan, kelejak nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat o‘z Vataniga xalqiga sadoqatli bo‘lish kabi olijanob fazilatlar aynan ana shu oila muhitida shakllanadi-degan edi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z ma’ruzalarning birida.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylanadi. Bu borada juda ko‘p ishlar amalgalashdi. Yuzlab maktablar qurildi, eskilari ta’mirlandi. Yangi sport inshoatlarining qurilishi va ularning yoshlar ixtiyoriga topshirilishi ham barkamol avlodni tarbiyalash uchun olib borilayotgan olajanob ishdirdi. Hammamizga ma’lumki boshlang‘ich ta’limning yosh avlod hayotidagi roli nihoyatda katta. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish maqsadida o‘rta maktablarning boshlang‘ich sinflarda oliy ma’lumotli yuksak tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar dars bermoqda. Barkamol avlod-ko‘nglida, qalb- qo‘rida ishonch va iftixor tuyg‘ulari mavjlanib turgan avloddir. U nafaqat haq-huquqini balki fuqarolik burchini ham chuqur anglaydi. Xuddi shu anglash, his qilish qaysi ilm dargohida ta’lim olmasin, qay bir sohada mehnat qilmasin, ulug‘ yurtning an’analariga munosib bo‘lishga undaydi.

Xalqimizda bola ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari-bobolar, buvilar qarindosh-urug‘lar ham bevosita ishtirok etadi. Bola tarbiyasida avvalo ota-onas, ulardan so‘ng bobo, buvi, qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchli bo‘ladi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning muhim omili hisoblanadi. Bunday tarbiya an’anaasi buyuk ajdodlarmiz tarixida muhim o‘rin tutgan.

Konstitutsiyamizning XIV bob 64-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi-deyiladi. Farzandining tarbiyasi bilan bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 47- moddasi bilan aylanadilar. Unda bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, voyaga yetmagan bolalarningt ma’muriy huquqbazarlik sodir etishga olib kelishi eng kam

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shaxsning oilada shakllangan ilk mafkurasi, iymon-e’tiqodi, odobi milliy oriyati va vijdoni, g‘urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq irodasi, o‘zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg‘unlashib jamiyatda sog‘lom munosabatlarning shakllanishi, milliy istiqlol g‘oyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

Farzand tarbiyasi avvalambor oiladan boshlanadi. “Oila muqaddasdir”-deydi dono xalqimiz. Azal-azaldan har bir ota-onha o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish ota-onasining eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak xato qilmaymiz. Biz sog‘lom avlod deganda, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog‘lom bolani o‘zimizga tasavvur etamiz. Sog‘lom bala-avvalo sog‘lom va ahil oilaning mevasidir. Biz oilani hayot davomiyligini ta’minlaydigan, kelejak nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat o‘z Vataniga xalqiga sadoqatli bo‘lish kabi olajanob fazilatlar aynan ana shu oila muhitida shakllanadi-degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z ma’ruzalarning birida.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylanadi. Bu borada juda ko‘p ishlar amalgalash oshirildi. Yuzlab maktablar qurildi, eskilari ta’mirlandi. Yangi sport inshoatlarining qurilishi va ularning yoshlar ixtiyoriga topshirilishi ham barkamol avlodni tarbiyalash uchun olib borilayotgan olajanob ishdir. Hammamizga ma’lumki boshlang‘ich ta’limning yosh avlod hayotidagi roli nihoyatda katta. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish maqsadida o‘rta maktablarning boshlang‘ich sinflarda oliy ma’lumotli yuksak tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar dars bermoqda. Barkamol avlod-ko‘nglida, qalb- qo‘rida ishonch va iftixor tuyg‘ulari mavjlanib turgan avloddir. U nafaqat haq-huquqini balki fuqarolik burchini ham chuqur anglaydi. Xuddi shu anglash, his-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qilish qaysi ilm dargohida ta'lim olmasin, qay bir sohada mehnat qilmasin, ulug' yurtning an'analariga munosib bo'lishga undaydi.

Xalqimizda bola ongida sog'lom g'oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari-bobolar, buvilar qarindosh-urug'lar ham bevosita ishtirok etadi. Bola tarbiyasida avvalo ota-onas, ulardan so'ng bobo, buvi, qo'shni va qarindoshlarning ta'siri kuchli bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning muhim omili hisoblanadi. Bunday tarbiya an'anaasi buyuk ajdodlarmiz tarixida muhim o'rinn tutgan.

Konstitutsiyamizning XIV bob 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi-deyiladi. Farzandining tarbiyasi bilan bilan qiziqmagan, yetarlicha g'amxo'rlik ko'rsatmagan ota-onalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 47- moddasi bilan aylanadilar. Unda bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, voyaga yetmagan bolalarningt ma'muriy huquqbazarlik sodir etishga olib kelishi eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shaxsning oilada shakllangan ilk mafkurasi, iymon-e'tiqodi, odobi milliy oriyati va vijdoni, g'urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishi, milliy istiqlol g'oyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

Mahalla shu tariqa shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim bog'lovchi vosita, xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analarini ifoda etgan holda, oila ulkan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya uchog'i vazifasini utaydi. Qariyalarimizning pand-nasihatlari, shaxsiy ibrati, ijtimoiy pedagogik munosabatlar misolida milliy g'oyaning amaliy ahamiyati ortib bordi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Tarbiya ona vazifasidir keyin ota, keyin maktab va jamoatchilik ishidir” deydi. Mashhur pedagog bu asarida ota-onalar o‘zlari bilimli va tarbiyali bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi. Qaysi onalar aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qayerdan olib berurlar. Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun pulini ko‘zi qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval ularning o‘zlarini o‘qitmoq va tarbiya qilmoq lozimdir. Demak farzand tarbiyasida chuqr mushohada, o‘tkir aql talab qilinar ekan. Shuning uchun ham ota-onalar, tinmay izlanishlari, o‘qishlari hayotni izchil kuzatishlari uchun chuqr mushohada qilishlari lozim.

Ulug‘ ajdodlarimizdan biri yozganidek: “Xalqimizning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, etibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan tarbiyalariga bog‘liq”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmon. 2017-yil 18-yanvar.
2. Avloniy.A “Turkiy Guliston yoxud axloq” T.O‘qituvchi 1992-yil